



SO‘Z ERKINLIGI VA UNING JAMIYAT TARAQQIYOTIGA TA'SIRI: ERKINLIK VA MAS'ULIYAT O‘RTASIDAGI MUVOZANAT

Eshmirzayeva Surayyo Rahimjon qizi

*Namangan Davlat Universiteti Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi San‘at va sport fakulteti
5 - bosqich talabasi.*

Annotatsiya. Ushbu maqola so‘z va fikr erkinligining jamiyatdagi ijtimoiy, madaniy va axloqiy jihatlariga ta‘sirini o‘rganadi. Ba‘zi guruhlar uni taraqqiyot asosi sifatida ko‘rsatsa, boshqalar salbiy oqibatlariga e‘tibor qaratmoqda. Tadqiqot davomida xalqaro statistik ma‘lumotlar, huquqiy hujjatlar hamda ijtimoiy tarmoqlardagi holatlar tahlil qilinib, so‘z erkinligi bilan bog‘liq imkoniyat va cheklovlar muhokama qilindi. Maqola so‘z erkinligini me‘yoriy ravishda cheklash zarurati va uning jamiyat rivojiga ta‘sirini yoritadi.

Kalit so‘zlar: so‘z erkinligi, fikr ifodasi, axborot erkinligi, jamiyat, madaniyat, ijtimoiy tarmoqlar, axloqiy mas‘uliyat.

1.Introduction (Kirish)

So‘z va fikr erkinligi har bir demokratik jamiyatning asosiy tamoyillaridan biridir. U insonning erkin fikr yuritishi, tanqidiy tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi va jamiyatda sog‘lom muhitni shakllantiradi. Bugungi kunda ushbu masalaga ikki xil nuqtayi nazar bilan qaralmoqda: biri bu huquqni jamiyat taraqqiyotining zaruriy sharti sifatida ko‘rsa, ikkinchisi esa uni salbiy oqibatlar manbayi sifatida baholaydi.

Tadqiqot maqsadi:

Ushbu maqolaning maqsadi - so‘z erkinligi jamiyatga qanday ijobiy va salbiy ta‘sir ko‘rsatishini ilmiy tahlil qilish va optimal muvozanat zarurligini asoslashdir.

Tadqiqot savoli:

"So‘z erkinligi qanchalik cheklanishi yoki kengaytirilishi kerak?"

2.Methods (Metodologiya)

Tadqiqot dizayni:

Tadqiqot kuzatuv va huquqiy - tahliliy yo‘nalishda olib borildi. Asosiy e‘tibor xalqaro reytinglar, qonunchilik hujjatlari va ijtimoiy holatlar tahliliga qaratildi.

Namunalar:

Tahlil uchun Norvegiya, O‘zbekiston kabi davlatlardagi so‘z erkinligi bo‘yicha statistik ko‘rsatkichlar va "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" asos qilib olindi.

Usul va vositalar:

Tadqiqotda xalqaro tashkilotlar (RSF - Reporters Without Borders), huquqiy normativ hujjatlar, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlardagi misollar asosida tahliliy yondashuv qo‘llanildi.

Tahlil usullari:

Maqolada sifatli tahlil (qualitative analysis) orqali erkinlik darajasi va uning ma‘daniy, axloqiy, siyosiy oqibatlari baholandi. Shuningdek, statistik natijalar bilan izohlandi.

3.Results (Natijalar)

• Norvegiya 2024 - yilgi "Soʻz erkinligi indeksi"da 180 davlat ichida 1 - oʻrinda, 92% koʻrsatkich bilan eng erkin mamlakat sifatida tan olingan.

• "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"ning 19 - moddasida: "Har kim fikr va uni erkin ifoda etish huquqiga egadir" deyilgan.

• Ijtimoiy tarmoqlarda fikrlar erkin yozilishi baʼzida milliy qadriyatlarni kamsitish, shaxs shaʼniga tajovuz va adabiy tilning buzilishi holatlariga olib kelmoqda.

• Koʻplab mamlakatlarda soʻz erkinligining oshishi bilan birga, ruhiy salomatlikka salbiy taʼsir, ijtimoiy noxolislik va kiberzoʻravonlik holatlari ham koʻpaygan.

4.Discussion (Muhokama)

Natijalar talqini:

Erkin fikr jamiyat va shaxsning ruhiy salomatligi uchun foyda boʻlishi mumkin boʻlsa - da, bu huquqni cheklamasdan amalga oshirish salbiy oqibatlar - kiberbullyingga, onlayn taziyq, jamiyatda oʻz - oʻzini senzura qilishga olib keladi.Shu bilan birga, erkin fikr bilan bir qatorda, jamiyatda madaniy ehtiyotkorlik va axloqiy chegaralar ham zarur.

Oldingi tadqiqotlar bilan solishtirish:

Avvalgi tahlillar erkin fikr va shaxsiy avtonomiya oʻrtasidagi bogʻliqlikni koʻrsatgan (Frontiers tahlili).Bizning natijalar ham bu fikrni tasdiqlaydi.Biroq, yangi statistika (Twitter va nafrat kontenti) ijtimoiy tarmoqlarda erkinlikning ham doirasi cheklanmasligi xavfli oqibatlarga olib kelishiga ishora qiladi.

Amaliy ahamiyat

Taʼlim tizimida yoshlarni onlayn muloqotda masʼuliyat va axloq asosida tarbiyalash va kiberbullyingga qarshi treninglar tashkil etish.

• Qonun ishlab chiqaruvchilar uchun erkin fikrni himoya qilgan holda, nafrat nutqini cheklovchi qonunlarni ishlab chiqish zarur.

• Platformalar va media - erkin ifoda bilan birga etik yoʻriqnomalarni kuchaytirish, avtomatik moderatsiya algoritmlarining adolatlilikini taʼminlash.

Cheklovlar

Maqolada keltirilgan statistikalar asosan chet el manbalariga asoslangan.Mahalliy kontekstdagi ijtimoiy media va erkin fikr holatlarini oʻz ichiga olmaydi.Kelajakdagi tadqiqotlarda bu jihatlar ham koʻrib chiqilishi zarur.

Xulosa

Fikr erkinligi - shaxsiy va jamoaviy taraqqiyotning poydevori boʻlishi mumkin, biroq bu huquqni cheklamasdan amalga oshirish xavfli oqibatlarga olib keladi.Onlayn taziyq, kiberbullying, madaniy degradatsiya kabi salbiy hodisalar bu tahlil orqali yaqqol koʻrinadi.Shu bois, jamiyat va davlat oʻrtasida erkinlik va javobgarlik muvozanatini topish muhimdir.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. (1948). Birlashgan Millatlar Tashkiloti, 19 - modda. <https://www.un.org>.
2. Reporters Without Borders (RSF). (2024). World Press Freedom Index. <https://rsf.org/en/index>.
3. Freedom House. (2023). Freedom in the World Report - Global Expansion of Authoritarian Rule. <https://freedomhouse.org>.
4. UNESCO. (2022). Freedom of Expression: A Fundamental Human Right under Attack. Paris: UNESCO Publishing.
5. BBC Media Action. (2021). Public Opinion and Freedom of Speech in Transitional Democracies. London: BBC Media Action.
6. Qodirov, A. (2022). Soʻz erkinligi va jurnalistika: Huquqiy - meʼyoriy yondashuvlar. Toshkent: "Yangi asr avlodi".
7. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (2023 - yilgi tahrir). 29 - modda: "Har kim fikrlash, soʻz va eʼtiqod erkinligiga ega".
8. Karimov, I. (2019). Demokratik jamiyat qurish yoʻlida. Toshkent: Oʻzbekiston.
9. Transparency International. (2023). Corruption Perceptions Index 2023. <https://www.transparency.org>.
10. Oʻzbekiston Respublikasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi. (2024). OAV erkinligi va jurnalistlar huquqlarini himoya qilish boʻyicha hisobot.